

**QORAQALPOG'ISTON
RESPUBLIKASI
VAZIRLAR KENGASHINING
QARORI**



**QARAQALPAQSTAN
RESPUBLIKASI
MINISTRLER KENESININ
QARARI**

2023 - yil 2 - fevral

41-13-0-Q/23

Qoraqalpog'iston Respublikasi
Vazirlar Kengashi

2023-yil 29-yanvar kuni Nukus shahar, 22-kichik tuman 8/1-uyida sodir bo'lgan favqulodda hodisaning sabablarini tekshirish komissiyasi tarkibini tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 11-fevraldagi "Gazdan turmushda foydalanishda sodir bo'ladigan baxtsiz hodisalarni tekshirish hamda hisobga olish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 64-sonli qaroriga muvofiq, Nukus shahri 22-kichik tuman 8/1-uyida havo gaz aralashmasi chaqnashi natijasida sodir bo'lgan favqulodda hodisaning sabablarini tekshirish, hodisaning kelib chiqish sabablarini o'rganish bo'yicha dastlabki zarur choralarni ko'rish, kelgusida shunga o'xshash baxtsiz hodisalarning barvaqt oldini olish maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi qaror qiladi:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 11-fevraldagi "Gazdan turmushda foydalanishda sodir bo'ladigan baxtsiz hodisalarni tekshirish hamda hisobga olish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 64-sonli qarori 2-bandiga muvofiq Nukus shahri 22-kichik tuman 8/1-uyda sodir bo'lgan favqulodda hodisaning sabablarini tekshirish komissiyasi tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Komissiya (Erlepesov):

Komissiya ishini Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 11-fevraldagi 64-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Gazdan turmushda foydalanishda sodir bo'ladigan baxtsiz hodisalarni tekshirish hamda hisobga olish tartibi to'g'risida"gi Nizomi talablariga qat'iy rioya qilgan holda tashkil etsin;

Baxtsiz hodisa va uning kelib chiqish sabablarini aniqlash hamda kelgusida shu kabi baxtsiz hodisa takrorlanmasligi uchun mutaxassislar bilan birgalikda tegishli mutasaddi tashkilotlar tomonidan bajarilishi lozim bo'lgan asoslangan taklif va chora-tadbirlarni ishlab chiqsin;

Buning uchun komissiya tomonidan baxtsiz hodisa sodir bo'lgan joyning holati

uning barcha a'zolari ishtirokida joyiga chiqqan holda ko'zdan kechirish yo'li bilan o'rganilsin va tegishli dalolatnoma rasmiylashtirilishini ta'minlasin;

Komissiya tomonidan baxtsiz hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish jarayonida quyidagilarga alohida e'tibor qaratsin:

a) baxtsiz hodisa sodir bo'lgan joyning holati bo'yicha barcha o'zgarishlarni qayd etish;

b) gazdan foydalanish uskuna va jihozlarning turi, rusumi, markasi, ularning joylashuv o'rni va texnik holatini aniqlash;

v) dudburon va shamollatish kanallarining loyiha hujjatlariga, belgilangan norma va qoidalarga muvofiqligini aniqlash;

g) tegishli obyektlarda bajariladigan ishlar va tadbirlarni amalga oshirish jarayonida baxtsiz hodisa kelib chiqishiga sabab bo'lishi ehtimoli bo'lgan ishlar va tadbirlar turini aniqlash;

d) jismoniy shaxslar, shu jumladan, mansabdor shaxslarning ish jarayonida baxtsiz hodisa kelib chiqishiga sabab bo'lgan harakati (harakatsizligi)ni aniqlash;

e) baxtsiz hodisa guvohlaridan tushuntirish xatlarini olish;

j) baxtsiz hodisa sodir bo'lishiga olib kelgan aniq normativ-huquqiy hujjatlar va texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga rioya etilmaganlik holatlarini aniqlash.

3. Nukus shahri hokimligi (Panaev) "Hududgaz Qoraqalpog'iston" GTF (Aymanov) Komissiya talabiga binoan quyidagilarni qonunchilikda belgilangan asoslarda va tartibda:

baxtsiz hodisa kelib chiqishi sabablarini aniqlash uchun ekspertlar yoki mutaxassislarni jalb etish;

baxtsiz hodisa oqibatida talafot ko'rgan obyekt fotosuratini olish, baxtsiz hodisa sodir bo'lgan joyning prinsipial chizmasi yoki eskizini tayyorlash;

baxtsiz hodisa bo'yicha tekshirish o'tkazish uchun zarur bo'lgan transport va aloqa vositalari, maxsus kiyim, maxsus poyabzal va boshqa shaxsiy himoya vositalarini yetkazib berish;

komissiya a'zolarining ish faoliyati uchun zarur bo'lgan kompyuter texnikasi bilan jihozlangan alohida xona ajratib berish;

baxtsiz hodisani tekshirish materiallari zarur miqdorlarda nusxalari ko'paytirib

berilishini ta'minlasin.

4. Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi (Dosnazarov), «Hududgaz Qoraqalpog'iston» GTF (Aymanov) "O'zneftgazinspeksiya" Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'limi (Berdibaev) qonunchilikda belgilangan asoslarda va tartibda:

turar joylar, shu jumladan, ko'p kvartirali uylardagi jismoniy shaxslar tomonidan gazdan foydalanishda belgilangan xavfsizlik qoidalariga rioya etilishi holatlarini o'z vakolatlari doirasida tizimli o'rganish hamda aniqlangan muammo va nosozliklarni bartaraf etish choralarini ko'rsin;

turar joylar, shu jumladan, ko'p kvartirali uylarda maishiy ehtiyoj uchun tabiiy va suyultirilgan uglevodorod gazidan foydalanishda aholi xonadonlarining ichki gaz tarmoqlari hamda gazdan foydalanish uskunasi va jihozlarini belgilangan muddatlarda texnik taftishdan o'tkazilishini hamda ularga profilaktika xizmati ko'rsatilishini ta'minlasin.

5. Nukus shahar va tumanlar hokimliklari fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, manfaatdor vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda ommaviy axborot vositalari orqali maishiy ehtiyojlar uchun gaz uskunalaridan to'g'ri va xavfsiz foydalanish bo'yicha maxsus teleko'rsatuvlar, radioeshittirishlar va davra suhbatlarini doimiy asosda uyushtirilishini ta'minlasin.

6. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining birinchi o'rinbosari N.Erlepesov zimmasiga yuklatilsin.

**Qoraqalpog'iston
Respublikasi Vazirlar
Kengashi Raisi**



F. Ermanov

Qoraqalpog'iston Respublikasi
Vazirlar Kengashining
2023 yil 2 fevraldagi
41-13-0-Q/23-son qaroriga
1-ilova

**Nukus shahri 22-kichik tuman 8/1-uyda sodir bo'lgan favqulodda hodisaning
sabablarini tekshirish komissiyasi**

TARKIBI

№	F.I.Sh	Lavozimi
1.	N.Erlepesov	Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining birinchi o'rinbosari, komissiya raisi
2.	A.Davletov	Qoraqalpog'iston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi boshlig'i, komissiya raisining o'rinbosari
Komissiya a'zolari		
3.	X.Aymanov	«Hududgaz Qoraqalpog'iston» GTF direktori
4.	A.Nurimbetov	“Elektr tarmoqlari hududiy korxonasi” AJ direktori
5.	N.Paluaniyazov	Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasi QR boshqarmasi boshlig'i
6.	A.Dosnazarov	Qoraqalpog'iston Respublikasi Uy-joy kommunal xo'jaligi vaziri
7.	M.Berdibaev	“O'zneftgazinspeksiya” QR bo'limi boshlig'i
8.	U.Sabirov	“O'zdavenergiya nazorat” inspeksiyasi QR bo'limi boshlig'i
9.	B.Madaminov	Qurilish sohasidagi hududiy nazorat inspeksiyasi boshlig'i
10.	D.Reymov	Qoraqalpog'iston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi bo'lim boshlig'i, komissiya kotibi